

Farhadova Quvonchoy

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

*Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar
fanlar fakulteti, Siyosatshunoslik yo'nalishi talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy me'yorlar va an'analar siyosiy ishtirokga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Xususan, milliy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va oilaviy institutlarning jamiyatdagi siyosiy faoliyat darajasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni, fuqarolik ongining shakllanishi va an'anaviy ijtimoiy tuzilmalar orqali siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlarining shakllanishi haqida fikr yuritiladi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar orqali madaniy omillar siyosiy ishtirokni qanday rag'batlantirishi yoki cheklashi mumkinligi yoritiladi. Tadqiqotda sotsiologik va madaniy yondashuvlar asosida siyosiy ishtirokning madaniy ildizlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: madaniy me'yorlar, siyosiy ishtirok, an'analar, fuqarolik ong, siyosiy ijtimoiylashuv, ijtimoiy tuzilmalar, milliy qadriyatlar.

Siyosiy ishtirok – bu fuqarolarning siyosiy jarayonlarda bevosita yoki bilvosita qatnashuvi bo'lib, u ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. Jamiyatda mavjud bo'lган madaniy me'yorlar va an'analar ushbu ishtirok shakllariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida bu omillarni tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Siyosiy ishtirok — zamonaviy demokratiya, siyosiy modernizatsiya, siyosiy taraqqiyot, siyosiy madaniyat va siyosiy partiyalar faoliyati doirasida muhim o'rinn tutadigan asosiy tushunchalardan biridir. U fuqarolarning davlat hokimiyati va siyosiy tizim faoliyatida ishtirok etish shakllarini ifodalaydi. Ushbu tushuncha jamiyatdagi siyosiy jarayonlarning ochiqligi, fuqarolarning faolligi va siyosiy ong darajasini aks ettiradi.

Siyosiy ishtirok subyektlari sifatida yakka shaxslar (individlar), ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va siyosiy tashkilotlar (jumladan, partiyalar, nodavlat tashkilotlar) ko'rildi. Bu subyektlar siyosiy jarayonlarga turli darajalarda va shakllarda jalb etiladi.

Siyosiy ishtirokning darajalari:

- Mahalliy daraja – aholi tomonidan mahalliy kengashlar, hokimiyat organlariga ta'sir ko'rsatish orqali amalgalashadi.
- Mintaqaviy daraja – viloyat, hudud miqyosida siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok.

- Umum davlat darajasi – prezidentlik, parlament saylovleri, siyosiy tashabbus va referendumlarda qatnashish.
- Xalqaro daraja – fuqarolarning xalqaro tashkilotlar, forumlar, mitinglar va hamkorlik loyihalari orqali siyosiy jarayonlarda ishtiroki.

Jamiyatdagi axloqiy qoidalar va qadriyatlar fuqarolarning siyosiy masalalarga munosabatini belgilaydi.

Masalan, ota-onaga hurmat, kattalarning so‘zini ikki qilmaslik kabi qadriyatlar yoshlarda siyosiy tanlov erkinligini cheklashi mumkin.

An’anaviy institutlar va siyosiy ishtirok. Oila, mahalla, diniy tashkilotlar siyosiy qaror qabul qilishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Bu institutlar orqali tarbiyalangan shaxslar siyosiy hayotda faol yoki passiv bo‘lishi mumkin.

Siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida milliy urf-odatlar muhim ro‘l o‘ynaydi.

Ommaviy axborot vositalarida milliy va diniy obrazlar orqali siyosiy ong shakllanadi.¹

Mustaqillikdan keyingi davrda siyosiy ishtirok madaniy me’yorlar ta’sirida rivojlandi. Aholining faolligini oshirish uchun an’anaviy institutlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Siyosiy jarayonning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Siyosiy munosabatlar – Bu siyosiy subyektlar (ya’ni odamlar, guruhlar, tashkilotlar) o‘rtasida hokimiyat bilan bog‘liq manfaatlarni muvofiqlashtirish va boshqarishga doir munosabatlardir. Ushbu munosabatlar davomida siyosiy jarayon doimiy ravishda yangilanib boradi, siyosiy g‘oyalar, tajriba, qadriyatlar va ma’lumotlar shakllanadi hamda uzatiladi. Shuningdek, siyosiy faoliyatning turli ko‘rinish va usullari yuzaga keladi.

Siyosiy jarayon subyektlari – Siyosiy jarayonning faol ishtirokchilari bo‘lib, bular shaxslar, ijtimoiy qatlamlar, milliy-etnik guruhlar, diniy va demografik guruhlar, hamda siyosiy institutlardan iborat. Ushbu subyektlarning faoliyatini belgilovchi asosiy jihatlar — bu ularning ongli yondashuvi va siyosiy faolligidir.

Siyosiy xulq-atvor – Bu shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning siyosiy hokimiyatda ishtirok etishi, o‘z manfaatlarini himoya qilishdagi faol harakatlarini ifodalaydi. Bunga siyosiy ishtirok ham kiradi, ya’ni siyosiy subyektlarning faol ravishda siyosiy munosabatlarga jalb qilinishi.

Siyosiy jarayonlar odatda tashqi (xalqaro) siyosat va ichki siyosat shaklida namoyon bo‘ladi. Ularning asosiy ko‘rinishlari quyidagilardir:

Global va mintaqaviy siyosiy jarayonlar – dunyo miqyosida yoki biror mintaqada doirasida kechuvchi siyosiy hodisalar.

¹ T.H. Ilhomov (2018). O‘zbek jamiyatida an’analar va modernizatsiya jarayoni. Toshkent: “Fan” nashriyoti.

Mahalliy (ichki) siyosiy jarayonlar – muayyan mamlakat doirasidagi siyosiy faoliyat va harakatlar.

Shu bilan birga, siyosiy jarayonlarni yagona, mustahkam tizim sifatida o‘rganish qiyin. Ular xususiyatlariga ko‘ra quyidagi ikki turga bo‘linadi:

Umumiy siyosiy jarayonlar – keng doiradagi, ko‘plab subyektlarni o‘z ichiga olgan siyosiy faoliyatlar.

Xususiy siyosiy jarayonlar – tor doiradagi, muayyan guruhlardan yoki masalalarga oid siyosiy harakatlar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, siyosiy jarayonlarga bo‘lgan qiziqishning susayishiga olib keladigan asosiy omillardan biri — fuqarolarning hukumat va siyosiy tuzilmalarga nisbatan ishonchszilik bilan qarashlaridir. Bu esa ularning siyosiy hayotda faol ishtirok etishdan ixtiyoriy tarzda chekinishiga sabab bo‘lmoqda.

Siyosiy faollikdan voz kechganlar turli guruhlarga bo‘linadi. Jumladan, ayrim kishilar o‘zlarining shaxsiy muammolari, kasbiy maqsadlariga erishish yo‘lida to‘liq band bo‘lib qolganliklari tufayli siyosiy faoliyatga befarq qarashadi. Ular, odatda, qulay hayot tarzini afzal ko‘radilar va submadaniyat (kichik madaniy guruhlardan) doirasidagi qiziqishlari bilan siyosiy voqelikka e’tibor qaratmaydilar.

Yana bir guruh fuqarolar siyosatni murakkab, tushunarsiz yoki hatto zerikarli va befoyda faoliyat deb hisoblashadi. Ular siyosiy jarayonlarni beqaror, o‘zlarining kundalik hayotlariga ta’sir ko‘rsatmaydigan narsa sifatida ko‘radilar.

Xulosa qilib aytganda, madaniy me’yorlar va an’analar siyosiy ishtiroqni rag‘batlantirishi yoki cheklashi mumkin. Ularning siyosiy jarayonlardagi rolini to‘g‘ri anglash demokratik rivojlanish yo‘lida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida bu omillarni hisobga olgan holda siyosiy ishtirokni kuchaytirish strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huntington S. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster.
2. T.H. Ilxomov (2018). O‘zbek jamiyatida an’analar va modernizatsiya jarayoni. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
3. Karimov I.A. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: Adolat nashriyoti.
5. M.Qirg‘izboyev. “Siyosatshunoslik”: o‘quv qo‘llanma . -Toshkent-“Yangi asr avlodi”, 2013.